

ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TAMINLASHNING G'OYAVIY-MAFKURAVIY ASOSLARI

Jabborov Ziyo Burxon o'g'li

TDSHU Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti tyutori

Jabborova Nargiza Baxtiyor qizi

**Toshkent shahar Yunusobod tumani 239-sonli ayrim fanlari chuqur o'qitiladigan
sinflari mavjud umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi**

Tel. (90) 9010904

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13928066>

Annotatsiya: mazkur tezisda zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi va axborot xurujining salbiy jihatlarini va ko'rinishlarini tahlil qilishga bag'ishlangan.

Tayanch so'zlar: xalqaro munosabatlar, axborot makoni, milliy xavfsizlik, axborot xavfsizligi, axborot urushi, axborot xuruji, dezinformasiya

Kirish

Bugungi murakkab geosiyosiy vaziyatda xalqaro munosabatlarda axborot xavfsizligini ta'minlash, uning salbiy ta'sirlaridan himoyalash davlatlar milliy xavfsizlik tizimining ajralmas qismiga aylandi.

Jahon axborot makonining globallashtiruvining ayni sharoitida inson ongi, qalbi, milliy mentaliteti, sog'lom e'tiqodi, vatanparvarlik va fidoyilik tuyg'ularining kamol topishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan g'oyaviy-mafkuraviy, axborot tahdidlari ta'siri sezilmoqda. Bugungi globallashtiruv sharoitida axborotga bo'lgan talab tobora kuchayib bormoqda. Shu boisdan, bugungi kunda xolis va haqqoniy axborotni tarqatish, aholining, birinchi navbatda, yoshlarning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish har qachongidan ko'ra dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborot xuruji avj olgan asrda atrofda sodir bo'layotgan voqealar haqida haqqoniy ma'lumotlarga ega bo'lish, har qanday noxolis axborotlar zahirida yot g'oyalar mavjudligini aholiga va avvalo yoshlarimizga tushuntirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni va ta'sir kuchining beqiyosligi ayon bo'lmoqda. Ommaviy axborot vositalari orqali juda tez fursatda tarqalayotgan ijtimoiysiyosiy, mafkuraviy axborotlarning ko'p foizi jahonning turli mamlakatlarida tashvish uyg'otmoqda.

Asosiy qism

Ta'kidlash joizki, dunyoga egalik qilishga intilayotgan kuchlar aynan axborotdan qurol sifatida foydalanishga urinmoqda. Boshqacha aytganda, bir tomondan axborot insoniyat ma'naviy olamini kengaytirish, inson ilmutafakkurini boyitishga xizmat qiladigan manba sifatida ahamiyat kasb etayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, axborot insonni o'zligi, millati, vatanidan ajratadigan va oxiroqibat butunlay manqurtga aylantiradigan «qurol»ga ham aylanib borayotgani bugun hech kimga sir emas. Hozirning o'zidayoq juda ko'p mamlakatlar o'z madaniyati, an'analari va ma'naviy qadriyatlarini yot axborot ta'siridan himoya qilish uchun maxsus choralar ko'rishga majbur bo'lmoqda. Shu sababli shiddat bilan kechayotgan voqea-hodisalar oqimida kirib kelayotgan axborotning mazmunini anglash, uni to'g'ri talqin etib, xulosalar chiqarish nihoyatda muhim hisoblanadi.

Bugun aholi, jumladan, yoshlar kundalik hayoti, ta'lim jarayoni, ish faoliyatida ham turli mazmundagi ma'lumotlarga ommaviy axborot vositalari orqali ega bo'lmoqdalar. Ular

ko'rayotgan filmlar, ko'rsatuvlar, tinglayotgan radioeshittirishlar mazmun-mohiyati nuqtai nazaridan kelib chiqib, ularning ma'naviy olamiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. OAVlar orqali ta'sir etishning ijobiy va salbiy ko'rinishlarini hisobga olgan holda shuni aytish mumkinki, inson ma'naviy kamolotida u qabul qilayotgan axborot muhitining roli katta. Demak, bugun yoshlarning nimani ko'rib, nimani tinglayotgani birinchi navbatda u voyaga etayotgan oila, shu bilan bir qatorda ta'lim muassasalari e'tiboridan ham chetda qolishi kerak emas 4:7.

Shu jihatdan, axborot xavfsizligi milliy xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida tarmoqlararo hususiyatga ega, ya'ni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy, madaniy sohalarda ham axborot xavfsizligini ta'minlanganligi ushbu yo'nalishlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, globallashuv davrida voqelik hech nima, aloqa esa hamma narsadan ustun. Sivilizasiyalarning taqlidi esa axborot etkazib berish tezligiga bog'liq hisoblanadi. O'z vaqtida axborotga va uni etkazib berish, tarqatish texnologiyasiga ega bo'lgan davlat eng qudratlidir. Ayrim nazariyalarga ko'ra davlatning qudrati moddiy boyliklar bilan emas, balki o'zga davlatlar axborot hududi (o'z hududining himoya qilinganligi) va fuqarolarning ongini egallaganligi bilan farqlanib turadi.

"Axborot urushi" atamasi ilk bor 1967 yil tilga olingan bo'lib, bu iboraning muallifi sobiq sovet Ittifoqiga qarshi boshlagan axborot urushining asoschilaridan biri Allen Dallesdir. Axborot urushi nazariyasining asoschilaridan yana biri Uinn Shvartou fikricha: "Zamonaviy jamiyat axborotga asoslanganligi sababli, ertami, kechmi, har kim axborothurujining qurboniga aylanadi",-deb ta'kidlaydi. Uinn Shvartou axborot urushini olib borishda barcha xatti-harakatlarning uchta sub'ektga qaratilganligini ta'kidlaydi: shaxsga (individual holatda), tashkiliy tuzilmaga (tashkilot-muassasaga qaratilgan) va global ko'rinishda (davlatlar o'rtasidagi ziddiyatga qaratilgan).

"Axborot xuruji" iborasi birinchi marta 1976 yil Tomas Ronning "Boeing" kompaniyasi uchun mo'ljallangan "qurollar tuzumi va axborot urushi" nomli hisobotida qayd etilgan. Tomas Ron AQSh iqtisodiyotida infratuzilma asosiy komponent bo'lib, keyinchalik uning harbiy, siyosiy soxalar kabi zaif nuqta bo'lib qolishini ta'kidlaydi. Axborot xurujining muhim jihati esa "qarshi davlatning-korxonalariga rahbarlariga, a'zolariga psixologik bosim o'tkazib, ularni "kerakli" qarorlarni qabul qilishga majbur qila bilishdir" deydi. Shunga ko'ra "axborot xuruji" nima, degan savolga javob berish mumkin. Axborot xuruji bu raqib sanalgan shaxsga, jamiyatga va davlatga siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda qabul qilingan qarorlarga ta'sir ko'rsatish, ijtimoiy faktlar va jamoatchilik ongini o'ziga kerakli yo'nalishda shakllantirishga urinishdir. Axborot xurujlarining amalga oshirishda raqiblar asosan quyidagi usullardan foydalanadi:

- dezinformasiya (yolg'on axborot tarqatish) - psixologik ta'sir ko'rsatishning bir ko'rinishi bo'lib, raqib tarafni chalg'itish maqsadida yolg'on axborot tarqatiladi. Bunda haqiqiy axborot bilan yolg'on axborot aralash ko'rinishida bo'ladi;
- manipulyasiya (omma ongini boshqarish) - omma ongini tuli g'oyalar, ko'rsatmalar, motivlar, stereotiplar, taqlid orqali sub'ekt manfaatlariga moslashtirish. Voqelikni noto'g'ri idrok qilish orqali soxta, yolg'on tushuncha yoki tasavvur hosil qilinadi;
- targ'ibot - omma ongida OAV yordamida ma'lum g'oyalarni tarqatish va ommalashtirish;
- inqirozli holatlarni boshqarish - asosan iqtisodiy va siyosiy sohalarga qaratilgan bo'lib, ma'lum guruh yoki davlat qiziqishlarini ko'zlaydi. Avvaldan tanlab olingan shaxslarga yashirin ko'rinishida ta'sir ko'rsatiladi;

- ig'vogarlik - ma'lum guruhlar va shaxslar tomonidan davlatning konstitutsion tuzumiga yoki qonuniy asoslariga qarshi harakatlarni amalga oshirish;
- tuxmat (bo'hton)-biror ob'ektni obro'sizlantirish, sha'nini bulg'ash maqsadida yolg'on ma'lumotlarni tarqatish;
- diskreditasiya (obro'sizlantirish) - omma orasida davlat raxbarlari, jamoat tashkilotlari, ayrim shaxslar obro'sini, siyosiy echimlar, tadbirlar ahamiyatini tushuntirish va ularga salbiy ta'sir ko'rsatish;
- omma diqqatini jalb etish - biror voqea, hodisa, ish yuzasidan huquqiy ma'lumot panadaqoldiriladi, shov-shuvga sabab bo'ladigan tadbirlar amalga oshiriladi;
- mish-mish gaplarni tarqatish - mavjud bo'lmagan ma'lumotlarni tarqatish. Asosan davlat va jamiyadagi bo'shliq joylarga asosiy zarba beriladi hamda siyosiy va ma'naviy etuk bo'lmagan shaxslar ob'ekt sifatida tanlab olinadi;
- fitna - maxsus axborot harakati bo'lib raqib muvaffaqiyatsizlikka (mag'lub bo'lish) olib boruvchi variantni tanlashga majburlanadi.

Demak, yuqorida keltirilgan usullar ma'lum amallar ketma-ketligidan iborat bo'lib, ularni amalga oshirishdan axborot xurujining ob'ekti va sub'ekti, kuch va vositalar, resurslar va vaqt omilini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqori darajada axborot xurujidan ko'zlangan asosiy maqsad - raqib davlat axborot maydonini egallab olish, xalqaro maydonda davlat imidjini tushurish, jamiyat hayotini beqarorlashtirish, shaxsni obrusizlantirishga qaratilgan axborotlarni tarqatish kabilardir. Hozirgi bosqichda maqsadga erishish uchun asosiy vositalar sifatida OAV va axborot-komunikasion texnologiyalardan foydalaniladi³.

Hozirgi kunda biror davlatda axborot xurujlarini amalga oshirish usullariga qarshi yagona bir kompleks tadbirlari ketma-ketligi ishlab chiqilmagan. Bunga sabab qilib axborot-komunikasion texnologiyalarining juda tez sur'atlarda rivojlanib borayotganligi, tezkorligi, turlichaligi, chegara bilmasligi, millat tanlamasligi, yashirinligi (qanday vaqay ko'rinishda yakunlanishining noma'lumligi) kabilarni keltirish mumkin.

Shunday sharoitda axborot xavfsizligini taminlash – axborot sohasiga ziyon etkazilishining oldini olishga xizmat qiladi. Bu jarayonda yovuv niyatli kishilarning kirdikorlariga qarshi kurash bilan bir qatorda turli darajada keltirilishi mumkin bo'lgan zararlarning ham oldi olinishi tabiiy.

Ta'kidlash joizki, axborot-psixologik xavfsizlik – davlat, jamiyat va shaxsga ziyon etkazishi mumkin bo'lgan tasodifiy yoki qasddan qilingan axborot ta'sirlardan himoyalashga qaratilgan muhim sa'y-harakatdir. Mutaxassislar fikricha bu quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish;
- axborotning konfidensialligini saqlash, uning OAVda chiqib ketishi, o'g'irlanishi va yo'qolishining oldini olish;
- axborotni buzib ko'rsatish va soxtalashtirishning oldini olish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, axborot-texnologiyalari va kommunikasion vositalar faol rivojlanib barayotgan davrda “axborot xavfsizligi” milliy xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida mustahkamlanib boraveradi. Mazkur sharoitda davlat va jamiyatni axborot xurujidan ximoya qilish o'z dolzarbligini saqlab qoladi.

Jamiyat axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashda uning quyidagi komponentlari (tarkibiy qismlari)ni bilish zarur, ya'ni, tahdidlar, tahdid ob'ektlari, tahdid manbalari,

tahdidning maqsadlari, axborot manbalari, axborotni g'ayriqonuniy tarzda qo'lga kiritish usullari, axborotni himoyalash yo'nalishlari, axborotni himoyalash usullari, axborotni himoyalash vositalari. Shu o'rinda aytish joizki, axborotni turli tahdidlardan himoyalash uchun g'ayriqonuniy harakatlarga befarq qaramaslik, ularning oldini olish, axborot manbalariga ruxsatsiz kirishga yo'l qo'ymaslik va zarur paytda qarshilik ko'rsatishni ta'minlovchi turli tadbirlar, yo'llar, usullarni qo'llash taqozo etiladi. Bu esa xalqaro munosabatlar tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash masalasini dolzarbligini ko'rsatadi.

References:

1. Ismatov E. Eng xavfli xuruj bu axborot xurujidir // <http://jizzax.uz/2754-eng-xavfli-xuruj-bu-axborot-xurujidir.html> - 24 sentyabr 2019 yil
2. Raimov Sh.U. Axborot xavfsizligini ta'minlash – milliy xavfsizlik strategiyasining eng muhim yo'nalishi. /O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi joriy arxivi, 2006. // Iqtibos manbasi: Eshbek T. Axborot-psixologik xavfsizlik // <http://uchildiz.uz/axborot-psixologik-xavfsizlik-7/> - 22.05.2016
3. Saydjanov F. Axborot-psixologik xurujlar va ularga qarshi kurashish usullari // <http://mv-vatanparvar.uz/uz/news?id=4582>
4. Taylakova Sh.N. Globallashgan axborot sharoitida o'quvchi-yoshlarning g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini ommaviy axborot vositalari asosida shakllantirish // Zamonaviy ta'lim / Sovremennoe Obrazovanie. –T. – 2015. – № 5. –B.3-7.